



XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2023 - yil 13 - noyabr

VI-83-105-10-0-K/23

Toshkent viloyati hokimiligi

Ohangaron tumaning ayirim hududlariga “Kommunal xizmat ko‘rsatish” MChJ hamda “To‘qberdi” xususiy korxonasi tomonidan iste’mochilarga yetkazib beriladigan ichimlik suvi va ko‘rsatiladigan oqova suv xizmatlari tariflarini ko‘rib chiqish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi 6074-sonli Farmoni 3-bandi va 2022-yil 2-avgustdagi 341-sonli qarori 4-ilovasi 5.11-bandiga muvofiq, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan “Kommunal xizmat ko‘rsatish” MChJga 2023-yil 30-avgustda berilgan H-11-01/03-3571-sonli xulosasi, Iqtisodiyot va Moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 13-sentabrdagi 03-20/27-08-38/1722-sonli xati Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan “To‘qberdi” xususiy korxonasiga 2023-yil 9-sentabrda berilgan T-11-01/03-3651-sonli xulosasi, Iqtisodiyot va Moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 15-sentabrdagi 0-20/27-08-38/1737-sonli xati o‘rganib chiqilib, mazkur hududlarda ichimlik suvi va oqova suv xizmatlari tariflarini tartibga solish maqsadida Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi 6074-sonli Farmoni va 2022-yil 2-avgustdagi 341-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan “Kommunal xizmat ko‘rsatish” MChJga 2023-yil 30-avgustda berilgan H-11-01/03-3571-sonli xulosasi, Iqtisodiyot va Moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 13-sentabrdagi 03-20/27-08-38/1722-sonli xati Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining

viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan “To‘qberdi” xususiy korxonasiga 2023-yil 9-sentabrda berilgan T-11-01/03-3651-sonli xulosasi, Iqtisodiyot va Moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 15-sentabrdagi 0-20/27-08-38/1737-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin;

2.1. “Kommunal xizmat ko‘rsatish” MCHJ tomonidan xizmat ko‘rsatiladigan iste’mochilarga yetkazib beriladigan ichimlik suvi va ko‘rsatiladigan oqova suv xizmatlari tariflari taqdim etilgan xulosalar asosida **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining viloyat boshqarmasi (Zarifa Eraliyeva), “Toshkent haqiqati” va “Tashkentskaya pravda” gazetalari (G‘ayrat Sheraliyev) iste’mochilarga yetkazib beriladigan ichimlik suvi va ko‘rsatiladigan oqova suv xizmatlarining yangilangan tariflari 2023-yil 1-dekabrdan boshlab qo‘llanishi yuzasidan ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borishi tavsiya etilsin.

4. “Kommunal xizmat ko‘rsatish” MCHJ (A.Xalikov) iste’mochilarga yetkazib beriladigan ichimlik suvi va ko‘rsatiladigan oqova suv xizmatlarining yangilangan tariflari 2023-yil 1-dekabrdan boshlab qo‘llanishi yuzasidan har bir mahallada targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borsin.

5. “Kommunal xizmat ko‘rsatish” MCHJ (A.Xalikov) belgilangan narxlarni muddatidan oldin qo‘llanilishiga hamda asossiz oshib ketmasligi uchun shaxsan javobgar etib belgilansin.

6. “To‘qberdi” xususiy korxonasi tomonidan iste’mochilarga yetkazib beriladigan ichimlik suvining yangilanayotgan tariflarini joriy etish yuzasidan tegishli viloyat va mahalliy Kengash deputatlaridan iborat ishchi guruhi tuzib, har bir mahallada targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borib, ularni fikrini bilib, undan so‘ng Xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdagi sessiyasida ko‘rib chiqish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal masalalari va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Axmadali Xudayberganov hamda viloyat hokimining shaharlar infratuzilmasini rivojlantirish, obodonlashtirish va kommunal xo‘jalik masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Barxayot Meliyevlar zimmasiga yuklansin.

**Xalq deputatlari viloyat
kengashi raisi**



Z.Mirzayev

Xalq deputatlari Toshkent
viloyat Kengashining
2023-yil 13-noyabrdagi
VI-83-105-10-0-K/23-son
qaroriga
1-ilova

**Ohangaron tumanining ayrim hududlari uchun ichimlik suv ta'minoti va oqova
suv xizmatlari uchun amaldagi va taklif etilayotgan narxlar (tariflar)**

T/r	Xizmat turi	Amaldagi narx (tarif) (so'm)	Amaldagi narx (tarif) (so'm) (QQS bilan)	Taklif etilayotgan narx (tarif) (so'm)	Taklif etilayotgan narx (tarif) (so'm) (QQS bilan)
"Kommunal xizmat ko'rsatish" MChJ					
Ichimlik suv yetkazib berish narxi					
1	Aholi uchun 1 m ³	300		550	
2	Byudjet tashkilotlari uchun 1 m ³	420	483	1200	1344
3	Ulgurji tashkilotlari uchun 1 m ³	470	540,5	1200	1344
Oqova suv xizmati narxi					
4	Aholi uchun 1 m ³	750		1050	
5	Byudjet tashkilotlari uchun 1 m ³	1250	1437,5	2000	2240
6	Ulgurji tashkilotlari uchun 1 m ³	2500	2875	3000	3360